O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Bosh karamlarni sotish va uning sifatini nazorat qilish

(FFV-09:2020, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti
Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #QOSI5JTL0G - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan ISHLAB CHIQILDI.

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 25-fevraldagi 6/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan TASDIQLANDI.

3 Ushbu standart FVV-09:2020 “Standard concerning the marketing and commercial quality control of headed cabbages” xalqaro standartiga aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standart va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarida chop etiladi.

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarining biridan foydalanish tavsiya etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston Respublikasi hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishlidir

STANDARTLAR INSTITUTI #QOSI5JTL0G - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Qishloq xo‘jaligi sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruh

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi (BMT YeIK) Qishloq xo‘jaligi sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruhi tomonidan ishlab chiqilgan tijorat sifat standartlari xalqaro savdoni yengillashtirish, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishni rag‘batlantirish, daromadlilikni oshirish va iste’molchilar manfaatlarini himoya qilishga ko‘masinfhadi. BMT YeIK standartlarini hukumatlar, ishlab chiqaruvchilar, savdogarlar, import va eksport qiluvchilar hamda boshqa xalqaro tashkilotlar qo‘llaydi. Ushbu yangi meva-sabzavotlar, quruq va quritilgan mahsulotlar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, kesma gullar, tuxum va tuxum mahsulotlarini o‘z ichiga olgan keng turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qamrab oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining har qanday a’zosi Ishchi guruh faoliyatida teng huquqli asosda ishtirok etishi mumkin. Qishloq xo‘jaligi standartlari haqida ko‘proq ma’lumot olish uchun uchun quyidagi veb-saytga tashrif buyurish mumkin: www.unece.org/trade/agr.

Bosh karam uchun ushbu qayta ko‘rib chiqilgan Standart ECE/CTCS/WP.7/2020/4 hujjati asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, 2020 yilda Ishchi guruh tomonidan (sessiyalar oralig‘idagi tasdiqlash tartibi orqali) ko‘rib chiqilgan va qabul qilingan.

2017-yildagi Standart tuzilma (Standard Layout) bilan muvofiqlashtirilgan.

STANDARTLAR INSTITUTI #QOSI5JTL0G - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

BOSH KARAMLARNI SOTISH VA UNING SIFATINI NAZORAT QILISH

КАСАЮЩИЙСЯ СБЫТА И КОНТРОЛЯ ТОВАРНОГО КАЧЕСТВА КОЧАННУЮ КАПУСТУ

CONCERNING THE MARKETING AND COMMERCIAL QUALITY CONTROL OF HEADED CABBAGES

Amalga kiritish sanasi 25.03.2026

1 Mahsulot ta’rifi

Ushbu standart quyidagi turdagi yangi holatda iste’molchiga yetkazib beriladigan bosh karamlarga nisbatan qo‘llaniladi:

- *Brassica oleracea var. capitata L.* (jumladan, qizil va o‘tkir uchli karamlar).
- *Brassica oleracea var. sabauda L.* (savoy karami). Sanoat usulida qayta ishlash uchun mo‘ljallangan karamlar bundan mustasno.

II. Sifatga oid qoidalar

Ushbu standartning maqsadi — bosh karamning tayyorlash va qadoqlashdan keyingi bosqichida sifat talablarini belgilashdan iborat.

Biroq, eksportdan keyingi bosqichlarda qo‘llanilganda, mahsulotlar standart talablariga nisbatan quyidagi holatlarni namoyon qilishi mumkin:

• yangiligi va tarangligining biroz pasayishi;

• rivojlanish jarayoni hamda tez buziluvchanlik xususiyati sababli yuzaga keladigan yengil darajadagi yomonlashuv.

Mahsulot egasi/sotuvchisi bunday mahsulotlarni ushbu standart talablariga nomuvofiq tarzda namoyish etishga, sotuvga taklif qilishga, yetkazib berishga yoki sotmasligi kerak. Egasi/sotuvchi mazkur talablarning bajarilishi uchun mas’ul hisoblanadi.

A. Minimal talablar

Barcha Sinflarda har bir sinfga oid maxsus qoidalar va ruxsat etilgan chegaralarga rioya qilgan holda, bosh karamlar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

• butun; biroq bosh karamlarning ayrim tashqi barglari olib tashlangan bo‘lishi mumkin;

• yaxshi holatda; chirigan yoki iste’molga yaroqsiz holga keltiradigan darajada buzilgan mahsulotlar chiqarib tashlanadi;

• toza, ko‘zga ko‘rinadigan begona aralashmalardan deyarli xoli;

• tashqi ko‘rinishidan yangi;

• zararkunandalardan deyarli xoli;

• zararkunandalar yetkazgan shikastlanishlardan deyarli xoli;

• sovuq urishi (muzlash) natijasidagi shikastlanishlarsiz;

• g‘ayritabiiy tashqi namliksiz;

• har qanday begona hid va/yoki ta’msiz.

STANDARTLAR INSTITUTI #QOSI5JTL0G - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Poya barglar o‘sishining eng past nuqtasidan biroz pastroqda kesilgan bo‘lishi lozim; barglar mustahkam birikkan holda qolishi va kesilgan joy silliq hamda toza bo‘lishi kerak.

Bosh karamlarning rivojlanish darajasi va holati shunday bo‘lishi kerakki, ular:

• tashish va ortish-tushirish jarayonlariga bardosh bera olishi;

• belgilangan manzilga qoniqarli holatda yetib borishi mumkin bo‘lsin.

B. Tasniflash

Bosh karamlar quyida belgilanganidek ikki sinfga ajratiladi:

I-sinf

Ushbu sinfga mansub bosh karamlar yaxshi sifatga ega bo‘lishi lozim. Ular naviga va/yoki tijorat turiga xos xususiyatlarni namoyon etishi kerak.

Navi va/yoki tijorat turiga ko‘ra, ular zich bo‘lishi, barglari mustahkam birikkan holda bo‘lishi hamda gul poyasi shakllanishi belgilari kuzatilmasligi lozim.

Yashil Savoy karamlari va erta pishar karamlar to‘g‘ri tozalangan (trim qilingan) bo‘lishi kerak, biroq himoya maqsadida bir nechta tashqi barglar qoldirilishi mumkin.

Quyidagi yengil nuqsonlarga ruxsat etiladi, agar ular mahsulotning umumiy ko‘rinishiga, sifatiga, saqlanish xususiyatiga va qadoqdagi taqdimotiga ta’sir ko‘rsatmasa:

- tashqi barglardagi kichik yoriqlar;
- yengil ezilishlar;
- tashqi barglarning yengil darajada kesib tozalanishi;
- oq va Savoy karamlari holati sovuq ta’sirida yuzaga kelgan yengil rang o‘zgarishi.

II-sinf

Ushbu sinfga I-sinf talablariga javob bermaydigan, biroq yuqorida belgilangan minimal talablarga mos keladigan bosh karamlar kiradi.

Quyidagi nuqsonlarga ruxsat etiladi, agar bosh karamlar sifat, saqlanish xususiyati va taqdimot bo‘yicha o‘zining asosiy xususiyatlarini saqlab qolgan bo‘lsa:

- tashqi barglardagi yoriqlar;
- ezilishlar;
- tashqi barglarning kesib tozalanishi;
- zichligining kamroq bo‘lishi;
- oq va savoy karam navlari holatida sovuq ta’sirida yuzaga kelgan rang o‘zgarishi.

Poya va gul poyasining umumiy uzunligi bosh karam uzunligining uchdan ikki qismidan oshmasligi lozim.

STANDARTLAR INSTITUTI #QOSI5JTL0G - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

III. O‘lchamga oid qoidalar

O‘lcham mahsulotning og‘irligi bilan belgilanadi:

Erta pishar karamlar har bir donasi uchun eng kam og‘irlik 350 gramm, boshqa turdagi bosh karamlarning har bir donasi uchun esa 500 gramm bo‘lishi lozim.

Bir xil qadoqdagi mahsulotlarning o‘lchamlari bir xil bo‘lishini ta’minlash maqsadida, eng og‘ir boshning og‘irligi eng yengil boshning og‘irligidan ikki barobardan oshmasligi kerak. Agar eng og‘ir boshning og‘irligi 2 kilogramm yoki undan kam bo‘lsa, eng og‘ir va eng yengil boshlar o‘rtasidagi farq 1 kilogrammgacha bo‘lishi mumkin.

Qadoqlarda yetkazib beriladigan bosh karamlarning o‘lchami bir xil bo‘lishi kerak.

O‘lcham talablari kichik (miniatyura) mahsulotlarga[1] nisbatan qo‘llanilmaydi.

IV. Qo‘yimlarga oid qoidalar

Mahsulotni sotishning barcha bosqichlarida, ko‘rsatilgan[2] Sinfga mos kelmaydigan mahsulotlar uchun har bir turkumda sifat va o‘lcham bo‘yicha chegaralangan miqdorda og‘ishga ruxsat beriladi.

A. Sifat qo‘yimlari

(i) I Sinf

Ushbu Sinf talablariga to‘liq javob bermaydigan, ammo II Sinf talablariga mos keladigan bosh karamlarning soni yoki og‘irligi bo‘yicha umumiy me’yori 10 foizgacha bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi. Bu me’yor doirasida mahsulotning umumiy miqdoridan ko‘pi bilan 1 foizi II Sinf sifat talablariga ham, minimal talablarga ham javob bermaydigan yoki chirigan mahsulotlardan iborat bo‘lishi mumkin .

(ii) II Sinf

Sinf talablarini, minimal talablarni qondirmaydigan bosh karamlarning soni yoki og‘irligi bo‘yicha umumiy me’yori 10 foizgacha bo‘lishiga ruxsat etiladi. Ushbu me’yor doirasida mahsulotning umumiy miqdoridan ko‘pi bilan 2 foizi chirish jarayoniga uchragan mahsulotlardan iborat bo‘lishi mumkin.

B. O‘lcham qo‘yimlari

Barcha toifalar uchun (agar o‘lchamda bo‘lsa): o‘lcham talablariga javob bermaydigan karam boshlarining umumiy joizligi 10 foizni tashkil etishi mumkin (son yoki vazn bo‘yicha).

Biroq, erta pishar karamlar uchun birorta boshining vazni 300 grammdan, boshqa karamlar uchun esa kamida 400 grammdan bo‘lishi kerak.

---

[1] Miniatyura mahsulot — bu sabzavotning nav yoki duragay shakli bo‘lib, seleksiya va/yoki maxsus yetishtirish usullari orqali olinadi. Miniatyura bo‘lmagan navlarga mansub, to‘liq rivojlanmagan yoki o‘lchami yetarli bo‘lmagan namunalar bundan mustasno. Standartning boshqa barcha talablari bajarilishi kerak.

[2] Moslikni tekshirish birlamchi yoki kompozit namunalarni baholash orqali amalga oshiriladi. Bu tasodifiy olingan namunalar partiya sifatini ifodalaydi degan taxmin tamoyiliga asoslanadi. Moslikni tekshirish bo‘yicha OECD Ishlash Qoidalari — operatorlar tomonidan ham — jo‘natish bosqichida, shuningdek, ulgurji va taqsimlash markazlarida hamda oziq-ovqat chakana savdo omborlarida qo‘llash uchun tavsiya etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #QOSI5JTL0G - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

V. Taqdim etishga oid qoidalar

A. Bir xillik

Har bir qadoq (yoki transport vositasida quyma holda taqdim etilgan mahsulot to‘pi) tarkibi bir xil bo‘lishi va faqat bir xil kelib chiqishga ega, bir xil nav yoki tijorat turiga mansub, bir xil sifat darajasidagi hamda (agar kalibrlangan bo‘lsa) bir xil o‘lchamdagi bosh karamlarni o‘z ichiga olishi lozim.

I-sinfga mansub bosh karamlar shakli va rangi jihatidan bir xil bo‘lishi kerak.

Biroq, aniq farqlanuvchi tijorat turlari va/yoki rangdagi bosh karamlar bitta qadoqda aralashtirib joylanishi mumkin, agar ular sifat jihatidan bir xil bo‘lsa hamda har bir tegishli tijorat turi va/yoki rang bo‘yicha kelib chiqishi bir xil bo‘lsa. Bunday aralashmalarda o‘lcham bir xilligi talabi qo‘llanilmaydi.

Miniatyur bosh karamlar o‘lchami bo‘yicha yetarli darajada bir xil bo‘lishi kerak. Ular boshqa tur va kelib chiqishga mansub miniatyur mahsulotlar bilan aralashtirilishi mumkin.

Qadoq (yoki transport vositasida quyma holda taqdim etilgan to‘p) tarkibining ko‘rinib turgan qismi butun tarkibni ifodalovchi bo‘lishi kerak.

VI. Tamg‘alashga oid qoidalar

Har bir qadoqda[3] quyidagi tafsilotlar bo‘lishi kerak, harflar bir tomonda jamlangan, o‘qiladigan va o‘chmaydigan qilib belgilangan hamda tashqaridan ko‘rinadigan bo‘lishi kerak.

To‘kilgan holda tashiladigan (transport vositasiga to‘g‘ridan to‘g‘ri yuklanadigan) boshli karamlar uchun ushbu ma’lumotlar tovarga ilova qilinadigan hujjatda ko‘rsatilishi va transport vositasining ichida ko‘rinadigan holatda biriktirilishi kerak.

A. Identifikatsiya

Qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi/eksportchi:

Nomi va jismoniy manzil (masalan, ko‘cha/shahar/viloyat/pochta indeksi va, agar kelib chiqish mamlakatidan farq qilsa, mamlakat) yoki milliy organ[4] tomonidan rasman tan olingan kod belgisi, agar bunday tizimni qo‘llayotgan mamlakat BMT Kod Belgilari Reestrida[5] ro‘yxatga olingan bo‘lsa. Agar ko‘cha manzili mavjud bo‘lmasa, jismoniy manzil xo‘jalik yoki korxona nomidan, eng yaqin qishloq, shahar, hudud va pochta indeksidan iborat bo‘lishi mumkin; yoki GPS koordinatalari va PO Box manzili eng yaqin shahar, hudud va mamlakat bilan birgalikda jismoniy manzil[6] sifatida qabul qilinadi.

---

[3] Ushbu belgilash qoidalari mazkur ma’lumotlarni o‘zida aks ettirgan qadoqlarda taqdim etilgan savdo qadoqlariga tatbiq etilmaydi. Biroq, alohida taqdim etilgan savdo qadoqlariga (oldindan qadoqlangan mahsulotlarga) tatbiq etiladi.

[4] Bir qator mamlakatlarning milliy qonunchiligi nom va manzilning aniq ko‘rsatilishini talab qiladi. Biroq, kod belgisi qo‘llanilgan holatda, kod belgisi bilan yaqin aloqada “qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi (yoki ekvivalent qisqartmalar)” havolasi ko‘rsatilishi lozim. Agar kelib chiqish mamlakati bo‘lmasa, kod belgisi tan oluvchi mamlakatning ISO 3166 (alpha-2) mamlakat/hudud kodidan oldin qo‘yilishi kerak.

[5] Qarang: http://www.unece.org/trade/agr/codemarkregistry.html..

STANDARTLAR INSTITUTI #QOSI5JTL0G - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

[6] Qo‘shma Shtatlar tomonidan PO Box manzilidan foydalanishga rezerv qo‘yilgan, chunki bu inspektsiyalarni o‘tkazishga yoki mahsulotni qaytarib olish holatlarida tezkor aralashuvga imkon bermasligi mumkin va u qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi/eksport qiluvchiga oid milliy yorliq talablariga kirmaydi.

B. Mahsulot tavsifi

• Agar mahsulot tashqaridan ko‘rinmaydigan qilib qadoqlangan bo‘lsa, u holda’Oq karam’ (White cabbage) va shunga o‘xshash mahsulot nomi ko‘rsatilishi shart.;

• Aniq farqlanadigan tijorat turlari va/yoki ranglardagi boshli karamlar aralashmasi mavjud bo‘lsa, "Boshli karamlar aralashmasi" yoki shunga o‘xshash nom. Agar mahsulot tashqi tomondan ko‘rinmasa, qadoqdagi tijorat turlari va/yoki ranglari hamda har birining miqdori albatta ko‘rsatilishi lozim

• Tegishli hollarda, "mini boshli karamlar", "kichik boshli karamlar" yoki shunga o‘xshash nomlar.

C. Mahsulotning kelib chiqishi

• Kelib chiqish[7] mamlakati va, ixtiyoriy ravishda, yetishtirilgan tuman yoki milliy, mintaqaviy yoki mahalliy joy nomi

• Kelib chiqishi turlicha bo‘lgan boshli karamlarning aniq farqlanuvchi tijoriy turlari va/yoki ranglari aralashmasi bo‘lgan taqdirda, tegishli tijoriy tur va/yoki rangning nomi yonida har bir kelib chiqish mamlakatining ko‘rsatkichi keltiriladi.

• kelib chiqishi har xil bo‘lgan har xil turdagi miniatyura mahsulotlari aralashmasi bo‘lgan taqdirda, har bir kelib chiqish mamlakatining ko‘rsatkichi tegishli turning nomi yonida ko‘rsatiladi.

D Tijorat xususiyatlari

• Sinf
• Birliklar soni (ixtiyoriy).

E. Rasmiy nazorat tamg‘asi (ixtiyoriy)

1964-yilda qabul qilingan
So‘nggi marta 2020-yilda qayta ko‘rib chiqilgan
2017-yilgi standart tartibga muvofiqlashtirilib, moslantirilgan

[7] To‘liq yoki keng qo‘llaniladigan nom ko‘rsatilishi lozim..

STANDARTLAR INSTITUTI #QOSI5JTL0G - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI